



Yangiobzor tumani hokimligining kengaytirilgan yig'ilishi
BAYONI № 104

21 - 10.2023 2023-yil

tuman hokimligi
majlislar zali

Raislik qildi

- R.Jumaniyazov - Yangiobzor tumani hokimi

Ishtirok etganlar:

Yangiobzor tumani hokimining barcha o'rinbosarlari, tuman hokimligi apparati xodimlari, tumandagi MFY raislari, mahallalardagi hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faoli va tegishli tashkilot rahbarlari (ro'yxat asosida)

Taklif qilinganlar:

Yangiobzor tumani prokurori, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i, tuman adliya bo'limi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangiobzor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri.

KUN TARTIBI:

Yangiobzor tumani hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

(R.Jumaniyazov, J.Xalmetov, D.Erkayev, I.Qalandarov, S.Qo'shimov, H.Urazbayeva, R.Matyusupov, F.Ro'zmetova, K.Raximov, L.Babajanov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yangiobzor tumani hokimi R.Jumaniyazov so'zga chiqib, u o'z so'zida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotganligini, xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvar kundan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni kuchga kiringani va mazkur qonun ijrosi yuzasidan 2017-yil 2-fevralda Prezidentimizning «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinganligini, jahonning ko'plab mamlakatlarida korrupsiya dolzarb masalalardan biri ekanligi e'tirof etilayotganligi, korrupsiya chegara bilmas, biroq u jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalariga, qadriyatlar tizimiga kirib borib, odob-ahloq me'yorlariga putur yetkazishi, davlat organlari va tashkilotlarida hamda davlat muassasalarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yaratilganligi, byurokratik to'siqlarning bekor qilinishi natijasida davlat xizmatlarini

ko'rsatish sifati yanada yaxshilanganligini, Yangibozor tumanida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlarda hamda davlat muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilayotganligi, korrupsiyaning kelib chiqishiga shart-sharoit yaratilishining oldini olish va korrupsiyaning salbiy oqibatlarini bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilayotganligini, Yangibozor tumani hokimligi hamda tumandagi boshqa idora-tashkilotlari xodimlariga ish faoliyati davomida korrupsion huquqbuzarlik holatlariga yo'l qo'yish bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida atroflicha yig'ilish qatnashchilariga tushuntirishlar berildi.

Bulardan tashqari, tumanda ishga qabul qilishdagi ta'magirlik va korrupsion holatlar mavjudligi, davlat va tashkilotlar vakant lavozimlariga tanlovsiz ishga qabul qilish holatlariga yo'l qo'ymaslik, tumanda bo'sh ish o'rinlarini yashirish holatlari yuz bermasligi lozimligi ham qayd etib o'tildi.

Shundan keyin so'zga chiqqan Yangibozor tumani prokurori Sh.Ibraximov demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtda davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etilishi hokimiyatning obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, oqibatda amaldagi hokimiyatga va qonunlarga nisbatan norozilikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'sha davlatning tanazzuliga olib kelishini;

Jamiyat farovonligi va taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlardan biri va eng xavfli bu korrupsiya ekanligini;

Bunday illatni jamiyatimizda tag-tomiri bilan yo'qotish xalqimizning farovon hayotini ta'minlashda hayot-momot masalasi ekanligini bildirdi.

Shu sababli, prokuratura organlari tomonidan bugungi kunda korrupsiya qarshi kurash bo'yicha nafaqat boshqa idora-tashkilotlarni, balki o'z tizimini ham korrupsiyaga moyil xodimlaridan tozalash ishlari boshlab yuborilganligini, bu borada, prokuratura organlari davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarning to'la-to'kis ijrosini ta'minlash, korrupsiyaga barham berish maqsadida doimiy ravishda aholi va keng jamoatchilikni faol hamkorlik qilishga chaqirib kelmoqda.

Xususan, tuman prokuraturasi organlari tomonidan ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida Yangibozor tumanida ham korrupsiya jinoyatlari sodir qilgan bir qancha mansabdor shaxslar ushlanib, ularga nisbatan jazo muqarrarlari ta'minlanganligini, korrupsiya - ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisaligini, bu korrupsiyaga qarshi avvalo ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rilishi zarurligidan darak berilishini;

Shu sababli, bugungi kunda respublikamizda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmoqda, fosh etilgan korrupsiyachilar qattiq jazolanib kelayotganligini, mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib borilishini, jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korrupsiyachilar domiga ilingan amaldorlarning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solinganligini, ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab berishini, jinoyatni jazolashdan ko'ra, uni oldini olish singari profilaktik tadbirlarning yo'lga qo'yilishi qay darajada oqilonaligi

allaqachon isbotlanganligini, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida bejiz belgilab qo'yilmaganligini bildirdi.

Korxonada, muassasa va tegishli tashkilotlarda korrupsiya bilan bog'liq har bir holat haqida zudlik bilan tuman prokuraturasining 62-419-10-07 raqamli "Ishonch telefoni"ga ma'lum qilishlari bo'yicha yig'ilish qatnashchilariga atroflicha tushuntirishlar berib o'tdi.

Shuningdek, tuman prokuraturasi organlarining biron-bir xodimi faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakat yoki harakatsizlikni kuzatsangiz, sezsangiz, bu haqda zudlik bilan Shaxsiy xavfsizlik tarmog'ining 62-224-11-08 raqamiga xabar berishlarini bildirdi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash milliy Kengashining 2023-yil 7-apreldagi 9-sonli yig'ilish bayonnomasi hamda mazkur bayonnomaning 1,2,5-ilovasi bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan Yangibozor tumanida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi Yangibozor tumani hokimi R.Jumaniyazovning tuman hokimligining kengaytirilgan yig'ilishidagi ma'ruzasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangibozor tumani hokimligi axborot xizmati rahbari U.Nurmetovaga tuman hokimligining rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha to'liq joylashtirilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur majlis bayoni qarorining ijrosini nazorat qilish tuman hokimligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimi R.Matyusupov zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomani yuritdi



R.Matyusupov



